

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA | 2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY

7

ISSN:2181-0427
journal.namdu.uz





Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinnbosari: Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Inomov

T A H R I R H A Y ' A T I

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.d., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. A.To'rayev, akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, t.f.d., v.b. prof G.Doliyev, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., prof. A.Batashov, b.f.d., prof. N.Abdurahmonov, b.f.d., dots. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.n., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, s.f.d., prof v.b. N.B. Dexkanov, t.f.d., prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.d. dots. Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.d., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. dots. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov, g.f.d., dots. A.Nazarov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n., dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.d., dots. S.Abdullayev, PhD. D.Sarimsakova., PhD. B.Urinov.

Tibbiyat fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: N.Yusupov.

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-iyuldagagi kengaytirilgan 7-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 7). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023



UDK 37; 013; 2;
PEDAGOGIK AMALIYOTDA UY TA'LIMINING RIVOJLANISH RETROSPEKTIVASI

Nurmatova Shaxnoza Shavkatbekovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika
instituti o'qituvchisi,

E-mail: xusanbaevashahnoz@gmail.com

Tel: 90 155 97 77

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy ma'lumotlarga asoslangan holda uy ta'limining rivojlanish bosqichi asosiy katta davrlarga bo'lingan holda tahlil qilingan bo'lib, bunda har bir davrdagi ta'limning o'zaro farqi hamda bog'liqligi, dars berishga oid metodik jihatlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: qonun, modernizatsiya, farmon, ta'lim tizimi, kompensatsiya, Yangi O'zbekiston, renessans, poleolit, Chor Rossiya, voizlar, jadid, maktabxonasi, madrasa.

РЕТРОСПЕКТИВА РАЗВИТИЯ ДОМАШНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ

Нурматова Шахноза Шавкатбековна

Ташкентский экономический и педагогический
институт, преподаватель

E-mail: xusanbaevashahnoz@gmail.com

Tel: 90 155 97 77

Абстрактный: В данной статье на основе исторических данных проанализирован этап развития домашнего образования, разделенный на основные периоды, а также объяснены различия и сходства воспитания в каждый период, методологические аспекты, связанные с обучением.

Ключевые слова: закон, модернизация, указ, система образования, компенсация, Новый Узбекистан, ренессанс, палеолит, Царская Россия, проповедники, модерн, школа, медресе.

RETROSPECTIVE OF THE DEVELOPMENT OF HOME EDUCATION IN PEDAGOGICAL PRACTICE

Nurmatova Shakhnoza Shavkatbekovna

Tashkent Economic and pedagogical
institute, Teacher

E-mail: xusanbaevashahnoz@gmail.com

Tel: 90 155 97 77

Abstract: Based on historical data, this article analyzes the stage of development of home education, divided into main periods, and explains the differences and similarities of education in each period, as well as methodological aspects related to learning.

Key words: law, modernization, decree, education system, compensation, new Uzbekistan, renaissance, paleolithic, tsarist Russia, preachers, modern, school, madrasah.



Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o'quv uslubiyot departamenti boshlig'i, p.f.f.d., S.B.Qoraev taqribi asosida.

Kirish. So'ngi yillarda ta'lif sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va modernizatsiya qilish bo'yicha qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Xususan, ta'lif tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur Qonunga asosan ta'lif sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lif tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi. Shunga ko'ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ta'lif sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo'ldi deyishimiz mumkin. [4]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkonini tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi". [5]

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, O'zbekistonda ta'lif tizimini tubdan isloh qilish, o'qitish sifati va mazmunini yangi bosqichga ko'tarish, malakali kadrlarni tayyorlashning zamonaviy mexanizmini yaratish, o'quv dasturlari va adabiyotlarini yangilashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich, tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Sharqona ta'lifni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'lifdan ajratib bo'lmaydi. Ma'naviyatni shakllantirishdagi muhim omil esa mamlakat yosholining ta'lif-tarbiya tizimi bo'lib, uning dolzarbligini jadidlarning yetuk namoyondalaridan biri Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi quyidagi satrlar ham isbotlaydi: "Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidur" degan fikrlari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. [2]

Tadqiqot metodologiyasi. Bola bilan individual tarzda ishlash uning ish sur'ati, ishslash qobiliyati, toliqish xususiyatlari va boshqalarni hisobga olish, bundan tashqari, imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning jamiyatdan, maktabdan ajralganligini kompensatsiyalash imkonini beradi.

Bolaga uuda ta'lif beruvchi o'qituvchi ko'pincha muayyan ruhiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini, o'ziga xos korreksion-rivojlantiruvchi mahorat va ko'nikmalar, shuningdek, «o'qituvchi – o'quvchi – ota-onा» tizimi doirasida shaxslararo munosabatlarning alohida tizimi yaratilishini talab etuvchi ko'plab vazifalar bilan yuzma-yuz qoladi.

Qadim davrlardan boshlaboq xalq o'z pedagogikasini yaratgan, xilma-xil tarbiyaviy vositalar yordamida bolalarni amaliy faoliyatga, hayotiy kurashga tayyorlagan. Matriarxatda, ya'ni ekzogamiya (o'z qabiladoshiga uylanish yoki erga tegishni man qiluvchi urf-odat) davrida bolaning otasi noma'lum bo'lgan, chunki erkaklar va ayollar alohida yashagan, bolalar esa ona sulolasiga tegishli bo'lgan. Har ikki jinsdagi bolalar 4-5 yoshgacha ona uyida tarbiyalangan, keyinroq erkaklar uyiga o'tkazilib, u yerda turli hunarlarga o'rgatilgan. (So'nggi poleolit davri miloddan avvalgi 40-12 ming yillik) – Ilk ibtidoiy tarbiya elementlarining vujudga kelishi. [7]

Zardushtiyalar orasida ta'lif tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'lif 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab olgan. Yetti yoshga qadar bolalarga tizimli ta'lif berilmagan, faqatgina zardushtiylikning ma'lum qonunlari bilan tanishtirish bilan kifoyalangan.



Zardushtiylarning ta'lim muassasalarida ya'ni madrasalarda san'at va ta'limning 7 turini egallash muhim hisoblangan. Bular: o'qish, yozish, hisob-kitob, kamondan o'q otish, chavandozlik, diniy qonunlar, qiroat (maxsus intonatsiya bilan o'qish) va qo'shiq aytish.

Yozish va hisoblash ta'limning eng past darajasi edi. Notiqlik va "shirin so'z" boshlang'ich ta'limning eng yuqori darajasi hisoblangan. Voizlar (notiqlar) kotiblar va xattotlarga qaraganda jamiyatda yuqori mavqega ega edilar. Yozishni, sanoqni yaxshi bilgan kishilar hunarmandlar qatoriga qo'yilgan, notiqlar esa ruhoniy va din yetakchilari darajasiga yetgan. Boshlang'ich ta'limni olgan har bir o'quvchi mashg'ulot yakunida qasamyod qabul qiladi. Ilg'or qarashlarni ko'rib turganimizdek, zardushtiylarning yoshlari tarbiyasi va ta'limi, ularning o'qitish va tarbiyalash usullari, nasihat va tarbiyasi haqidagi fikrlari hozirgi ta'lim jarayonida taqlid va qo'llash uchun namuna bo'lishga loyiqdir. [1]

XVI asrning boshlaridan boshlab xonliklarda ta'lim jarayoni yanada rivojlanishi boshladi. Xiva xonligida ta'lim ikki bosqichli bo'lган. Quyi bosqich – boshlang'ich məktəb bo'lib, unda o'quvchilar o'qish-yozishni o'rganganlar. XIX asrda xonlikda 1,5 mingga yaqin boshlang'ich məktəblər fəaliyat ko'rsatgan. Shulardan 22 tasi Xiva shahrida joylashgan. Madrasalar esa ta'limning oliy bosqichi hisoblangan. Madrasalarda diniy bilim bilan bir qatorda dunyoviy bilimlər ham berilgan: arab tili grammatikası, mantiq, nutq madaniyati, matematika, geografiya, tarix.

XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa Buxoro xonligidagi islohotlarga ko'ra, ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy qilingan. Unga ko'ra har bir mahallada məktəb ochildi, ba'zi xonadonlarda esa uy ta'limi joriy etildi. Bolalarga 6 yoshdan ta'lim beriladigan bo'ldi. Məktəbda ikki yil o'qigach, o'quvchilar madrasaga o'tkazilgan. Madrasalarda o'quvchilar ilohiyot ilmi, hisob-qitob, handasa, fiqh, mantiq, musiqa, she'r san'atidan ilm olishgan. Bundan tashqari o'g'il va qiz bolalar alohida məktəbxonalarda ta'lim olishgan. O'g'il bolalar madrasa va xususiy məktəbdorlar xonadonlarda təhsil olishgan bo'lsa, qiz bolalar esa badavlat kishilar yoki ayol o'qituvchilar xonadonlarda uy ta'limini olishgan.

XVIII asrning boshlarida Qo'qon xonligida ta'lim sohasiga e'tibor kuchaya boshlandi. Xonlikda 350 ta məktəbxona (Məktəbxona ta'limi – boshlang'ich ta'lim) fəaliyat olib borgan. Boshlang'ich məktəbda o'quvchilarda arab imlosida savod chiqarish, yozish, o'qish, hisoblash kabi ko'nikmalar shakllantirilgan. Qo'qon xonligida ham o'g'il va qiz bolalar alohida ta'lim olishgan. Qiz bolalar asosan otin ayollar uylarida yoki badavlat kishilarning məktəb yoshidagi qızları uchun ularning uylarida tashkil etilgan xonadonlarda ta'lim-tarbiya olishgan. Ana shunday otinlardan biri Dilshodi Rahimqul so'fi qizi bo'lgan. [3]

Har bir jamiatdagi o'zgarishlar o'z davrining tarixiy sharoitidan kelib chiqib namoyon bo'ladi. Bu o'zgarishlardan tarixiy shaxslar, ayniqsa, ziyyolilarning o'rni katta bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. XIX asrning ikkinchi yarmida ana shunday ziyyoli insonlardan biri bo'lgan Ismoil Gaspirali Qrimdagı Boqchasaroyda birinchi jadid məktəbiga asos soladi (1884-yilda). Jadidlarning diqqat markazida eng avvalo, birinchi navbatda ta'limni isloh etish vazifikasi bo'lgan. XIX asr oxirida O'rta Osiyoda yangi usuldagı məktəblər sanoqli bo'lgan bo'lsa, 1911-yilga kelib ularning soni 63 taga, o'quvchilarning soni 4106 nafarni tashkil etgan. 1910-yilda Toshkentning o'zida 24 ta jadid məktəbi fəaliyat ko'rsatgan va 1740 nafar bola ta'lim olgan. [6]

Tahlil va natijalar. Mazkur o'rganilayotgan davrlarda mahalliy mintaqamizda Xalq ta'limi tizimi sekin-astalik bilan o'z davriga mos ravishda rivojlangan.



Tarbiya tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi har qanday davlatda uning tarixi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Uyda ta'lim berish ta'lim tizimining oilaviy tarbiyaning ko'p asrlik tajribasida aks etgan va bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonida shakllangan muhim sohasi sifatida ko'rib chiqiladi:

1-davr - Uyg'onish davri (Renessans) - miloddan avvalgi 40-12 ming yillikdan XV asrgacha bo'lgan davrlarda ta'lim-tarbiyaning ilk ildizlari;

2-davr (XVI - XIX asrning 2-yarmi) –Xonliklarda va Buxoro amirligida boshlang'ich ta'lim va uy ta'limining vujudga kelishi;

3-davr (1917 – yildan mustaqillikgacha bo'lgan davr) Chor Rossiyasi davrida jadidlar tomonidan ta'limga berilgan e'tibor;

4-davr (1991-yildan xozirgacha bo'lgan davr) – Mustaqillik yillarida bolalarga uyda ta'lim berish amaliyotining rivojlanishi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'mnida shuni ta'kidlash lozimki, tarixiy taraqqiyot davrida O'rta Osiyo hududida uy ta'limining rivojlanish bosqichi ko'plab to'siq va tazyiqlarga duchor bo'lgan. Masalan, Sovet hukumati tomonidan boshlang'ich ta'limning yo'lga qo'yilishi, ta'lim dargohlarining sifat jihatdan yaxshilanishi, yetuk kadrlar tayyorlash bo'yicha yangi g'oyalarni amaliyotga tadbiq qilinishi va shunga o'xhash ko'plab ta'limning gurkirab yashnashi yo'lida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarda barcha sohalar kabi mafkuraviy to'siqlarga duchor bo'lgan. Ammo, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan ta'lim sohasini milliy ko'rinishda tashkil etish ishlariga katta e'tibor berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Mahkam tarjimasi - «Avesto». Tarixiy-adabiy yodgorlik - T.:Sharq nashriyoti. 2001.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent, 2018, 28 bet
3. Jo'raev U, Usmonov Q, Jo'raeva G, Norqulov N – O'zbekiston tarixi 8-sinf – T.:O'qituvchi nashriyoti, 2019.
4. Maxmudov S- "Ta'lim tizimini isloh etish – islohotlarning bir qismi sifatida" - aniq.uz, 2020.
5. Mirziyoev Sh.M. - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi - <https://aza.uz>, 2022.
6. Tillaboev S, Zamonov A- O'zbekiston tarixi 9-sinf – T.:Sharq nashriyoti, 2019.
7. Shaymardanov R.X. – "PEDAGOGICHESKIE USLOVIYA ORGANIZATSII NADOMNOGO OBUCHENIYA UCHASHIXSYA S OGRANICHENNIMI VOZMOJNOSTYAMI" - Dissertatsiya, 2009.